

**BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SAMARALI
INNOVATSION METODLAR VA ULARNING DIDAKTIK
AHAMIYATI**

Ro'ziboyeva Yorqinoy Rustam qizi

Navoiy Davlat Universiteti San'at va sport fakulteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yunalishi 1-kurs magistranti

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi tub islohotlar o'qituvchidan nafaqat bilim beruvchi, balki jarayonni loyihalashtiruvchi moderator bo'lishni talab etmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tiliga nisbatan mehr va savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, darsga innovatsion ruh olib kirish – davr talabi. Interfaol metodlar o'quvchini darsning passiv tinglovchisidan uning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Dars bosqichlarida metodik ketma-ketlik. Ona tili darslarining har bir bosqichi (yangi mavzu, mustahkamlash, takrorlash) uchun maxsus tanlangan metodlar bilim o'zlashtirishni tizimli qiladi:

- Mavzu bo'yicha tushunchalarni shakllantirishda: "Aqliy hujum", "Klaster" va "Insert" metodlari o'quvchining mavjud bilimlarini yangilari bilan bog'lashga xizmat qiladi.

- Ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilishda: "Venn diagrammasi" (tushunchalarni qiyoslash), "Baliq skeleti" (sabab va oqibatni aniqlash) hamda "Konseptual jadval" kabi grafik tashkil etuvchilar o'quvchida tahliliy tafakkurni rivojlantiradi.

- Mustahkamlash va nazorat bosqichida: "Sinkveyn", "BBB", "FSMU" va "Rezyume" kabi metodlar orqali o'quvchi olgan bilimlarini xulosalashga va shaxsiy munosabatini ifodalashga o'rgatiladi.

Didaktik o'yinlar va ularning lingvistik ta'siri. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yin faoliyati hali ham yetakchi ekanligini hisobga olgan holda, darslarda didaktik o'yinlardan foydalanish kutilgan samarani beradi:

“Bo'g'inlar zanjiri” metodi: Bu o'yin o'quvchilarda so'z boyligini oshirish va fonetik eshitish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan: *kitob – bahor – ra'no – ota*. Bu jarayon o'quvchini tezkor fikrlashga va so'zlar zaxirasini tahlil qilishga majbur qiladi.

“Sirli sandiqcha” metodi: Grammatik tushunchalarni (masalan, so'z turkumlari) farqlash uchun juda samarali. O'quvchilar ma'lumotlarni saralash (klassifikatsiya qilish) ko'nikmasini egallaydilar. Masalan, "Ot" yoki "Fe'l" deb nomlangan ustunlarga tegishli so'zlarni joylashtirish orqali mantiqiy xulosalar chiqarishadi.

“Harfni/so'zni his qilish” metodi: Bu metod nafaqat dars samaradorligini, balki sinfdagi psixologik muhitni ham yaxshilaydi. “Taktil” (sezish orqali) o'rganish o'quvchining diqqat-e'tiborini markazlashtiradi. Bu usul ayniqsa harf o'rganish jarayonida va charchoqni bosuvchi "enerjayzer" sifatida qo'llaniladi.

“Enerjayzerlar” – faoliyatni qayta tiklash omili. Ona tili darslari odatda o'qish va yozish kabi diqqatni uzoq vaqt talab qiladigan jarayonlardan iborat bo'lgani uchun, o'quvchilarda tez toliqish kuzatiladi. "Dam olish daqiqalari"ni metodik jihatdan boyitish o'quvchining kognitiv faolligini qayta tiklaydi. "Sirli sandiqcha" yoki "Ha-yo'q" kabi tezkor savol-javob o'yinlari darsning bir maromda o'tishiga yo'l qo'ymaydi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish shunchaki darsni bezash emas, balki ta'lim sifatini kafolatlovchi vositadir. Bunday yondashuv: O'quvchida fanga nisbatan barqaror qiziqish uyg'otadi. Mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Nutqiy mahorat va o'z fikrini mustaqil bayon etish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining metodik mahorati va darsda qo'llayotgan interfaol usullari savodli, fikri keng va erkin mushohada yurituvchi shaxsni tarbiyalashning bosh mezonini hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
2. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 83-87.
3. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 3.1 (2024): 83-87.
4. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). Inson qadri va barkamol avlod shakllanishida pedagogikaning o'rni. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
5. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). Fanlararo bog'lanish asosida boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
6. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). Boshlang'ich ta'limda chet el o'quvchilarini baholash mezonini va samarali taqdirlash. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 783-785.
7. Abdullaxo'jayev, A. J. (2024). Is'hoqxon to'ra ibrat faoliyatiga ijtimoiy-falsafiy nazar. *Interpretation and researches*.

8. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o'rni. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 806-808.
9. Bohodirovna, S. G., & Usmanova, H. (2022, January). Model of innovative strategy on the basis of variative approach to preschool education. In Conference Zone (pp. 197-199). Bohodirovna, Sanginova Gulnoza, and H. Usmanova. "MODEL OF INNOVATIVE
10. Raxmatovna, J. R. A., & Athamboyevna, V. N. (2023). Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan dars berishning zamonaviy metodlari. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 651-652. strategy on the basis of variative approach to preschool education." Conference Zone. 2022.
11. Ганиева, М. А., and Д. М. Файзуллаева. "Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами/Мет. қўлл.“Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар” сериясидан." Т.: ТДИУ 95 (2013)